

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

2024/6-SON  
ILLOVA TO'RPLAM

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

**Sh.T.Mavlonova**

Inkluziv ta'lif o'quvchilariga ingliz tilini o'rgatishning pedagogik-psixologik, ijtimoiy xususiyatlari ..... 214

**Z.M.Xursanova**

Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarining mantiqiy fikrlashini rivojlantirish mazmuni ..... 219

**A.B.Mirzayev**

Effective ways to use the task-based approach in foreign language courses ..... 223

**Sh.A.Pakirdinova**

Blended learning texnologiyasining nazariy asoslari va uning ta'lif jarayonida ahamiyati ..... 226

**Sh.A.Pakirdinova**

Comparative analysis of online and traditional classroom learning ..... 231

**M.M.Umaralieva**

Fostering autonomy and engagement in higher education: self-regulated learning with multimedia tools ..... 235

**Z.N.Usmonov**

Maktabgacha tarbiya muassasalaridagi bolalar jismoniy tarbiyasi ..... 239

**A.T.Akbarov**

Turli maktab yoshidagi o'quvchilar organizmining funksional holatini o'ziga xos xususiyatlari ..... 246

**U.K.Rahmonov**

Musiqa madaniyat darslarini olib borishda ta'lif beruvchining o'mni ..... 252

**U.K.Rahmonov**

Musiqa darslarida zamonaliv texnologiyalarni qo'llashda loyiha texnologiyasini ahamiyati ..... 256

**V.Abdurakhmanov**

"The challenges of teaching english to international students" ..... 261

**D.Y.Irmatov**

Tarbiyachining kasbiy nazari va kasbiy amaliy tayorgarligi mazmuni monitoringi va maktabgacha ta'lif yoshidagilar "Ontogonez"iga mansub bilimlar ..... 265

**Н.Собиров, О.А.Акбаров, Э.Ф.Гиздулин**

Инновационная педагогическая деятельность ..... 269

---

**IQTISODIYOT**

---

**M.O.Baltabayeva, K.N.Raximova, M.K.Axmadiyeva**

Ayollarning iqtisodiy mustaqilligi oilaning yaxshi yashashiga qo'shgan hissasi ..... 273

**K.N.Raximova, M.O.Baltabayeva, M.K.Axmadiyeva**

Yashil iqtisodiyot fanida yashil iqtisodiyotga o'tish dolzarbliji va konseptual asoslari ..... 276

---

**FALSAFA**

---

**N.M.Axmadiyev**

Ijtimoiy rivojlanish va yoshlarni dunyoqarashida manfatlar to'qnashuvi ..... 281

**I.Toirov**

Milliy davlatchilik asoslарини mustaxkamlash va fuqarolik jamiyati barpo etishning falsafiy jihatları ..... 284

**I.A.Nurmatova**

Jamiyat ma'nnaviy muhitida oila institutining roli ..... 289

---

**SIYOSAT**

---

**B.P.Zokirov**

Jinoi aktivlarni qaytarish bo'yicha universal va mintaqaviy xalqaro-huquqiy asoslari ..... 293

**S.M.Xoliqov**

Davlatning mudofaa qobiliyatining huquqiy asoslari ..... 301

**B.P.Zokirov**

Xorijiy ilg'or tajribalar jinoi aktivlarni qaytarish mexanizmlarini rivojlantirishning muhim omil sifatida ..... 304

**S.M.Xoliqov**

Milliy xavfsizlikni ta'minlashda parlament quyi palatasi faoliyatidagi muammolar ..... 314



УО'К: 37.015.31

**TARBİYACHINING KASBIY NAZARI VA KASBIY AMALIY TAYORGARLIGI MAZMUNI  
MONITORINGI VA MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGILAR "ONTOGONEZ"IGA MANSUB  
BILIMLAR**

**ТЕОРИЯ И ПРАКТИЧЕСКАЯ ПОДГОТОВКА ВОСПИТАТЕЛЯ МОНИТОРИНГ  
СОДЕРЖАНИЯ И ЗНАНИЙ, СВЯЗАННЫХ С "ОНТОГОНЕЗОМ" ДЛЯ ДЕТЕЙ  
ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА**

**THE PROFESSIONAL THEORY OF THE EDUCATOR AND THE CONTENT OF  
PROFESSIONAL PRACTICAL TRAINING, MONITORING, AND KNOWLEDGE RELATED TO  
PRESCHOOL-AGED CHILDREN "ONTOGENESIS"**

Irmatov Dilyorbek Yunusbekovich 

Farg'onan davlat universiteti, Sport faoliyati kafedrası o'qituvchisi

**Annotatsiya**

*Ushbu tadqiqot "Tarbiyachining kasbiy nazari va kasbiy amaliy tayorgarligi" mavzusida olib borilgan bo'lib, uning maqsadi maktabgacha ta'limgoshidagi bolalarga ta'limgoshish jarayonida tarbiyachilarining kasbiy bilim va ko'nikmalarini o'rGANISHdir. "Ontogeny"ga mansub bilimlar, ya'nib bolalarning rivojlanish jarayonida tarbiyachilarining roli va ularning kasbiy tayyorgarlik darajasi, ta'limgoshini oshirishda muhim ahamiyatiga ega.*

*Tadqiqotda tarbiyachilarining kasbiy nazariyasi, amaliyatga tatbiqi, shuningdek, maktabgacha ta'limgoshasalarida ta'limgoshni monitoring qilish usullari ko'rib chiqiladi. Ushbu tadqiqot natijalari, tarbiyachilarining kasbiy malakasini oshirish va ta'limgoshni yanada samarali tashkil etish uchun bo'lgan tavsiyalarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.*

**Аннотация**

Данное исследование посвящено теме "Профессиональная теория и практическая подготовка воспитателя", целью которого является изучение профессиональных знаний и навыков воспитателей в процессе обучения детей дошкольного возраста. Знания, относящиеся к "онтогенезу", то есть роль воспитателей в процессе развития детей и уровень их профессиональной подготовки, имеют важное значение для повышения качества образования. В исследовании рассматриваются профессиональная теория воспитателей, ее применение на практике, а также методы мониторинга образовательного процесса в дошкольных учреждениях.

Результаты данного исследования будут способствовать разработке рекомендаций, необходимых для повышения квалификации воспитателей и более эффективной организации образовательного процесса.

**Abstract**

*This research is conducted on the topic of "The Professional Theory and Practical Training of Educators," with the aim of studying the professional knowledge and skills of educators in the process of teaching preschool-aged children. The knowledge related to "Ontogeny," that is, the role of educators in the developmental process of children and their level of professional preparation, is of significant importance in enhancing the quality of education. The study examines the professional theory of educators, its application in practice, as well as the methods of monitoring the educational process in preschool educational institutions. The results of this research will serve to develop recommendations necessary for improving the professional qualifications of educators and organizing the educational process more effectively.*

**Kalit so'zlar:** Tarbiyachi, kasbiy nazar, kasbiy amaliy tayyorgarlik, monitoring, maktabgacha ta'limgosh, ta'limgosh yoshi, ontogeny, pedagogik metodlar, ta'limgosh jarayoni, ta'limgoshni oshirish, tarbiyaviy jarayon, o'qitish strategiyalari, bolalar rivojlanishi, ta'limgosh tizimi, pedagogik faoliyat.

**Ключевые слова:** Воспитатель, профессиональная теория, профессиональная практическая подготовка, мониторинг, дошкольное образование, возраст обучения, онтогенез, педагогические методы, образовательный процесс, повышение качества образования, воспитательный процесс, стратегии обучения, развитие детей, образовательная система, педагогическая деятельность.

**Key words:** Educator, professional perspective, professional practical training, monitoring, preschool education, age of education, ontogenesis, pedagogical methods, educational process, improving education quality, educational process, teaching strategies, child development, education system, pedagogical activity.

## KIRISH

Mamlakatimiz Prezidenti tashabbuslari, farmonlari, qarorlari va xukumatimiz tomonidan qo'yilgan aniq amaliy ishlari, zaruri vazifalar, ko'rsatmalari va ularni amalga oshirish, davlat dastularini halqaro darajaga ko'tarish, Horijiy mamlakatlarning tajribalarini ta'lrim tizimining qator yo'nalishlarda keng qo'llanishi, ayniqsa, maktabgacha yoshdagilar ta'limi va uni boshqaruvni takomillashtirishga oid ishlarni amalga oshirishdan provard maqsad , ilgari surilgan, surilayotgan, yetakchi g'oyaga aylanib *millat genofondini mustahkamlash*, ona yurt farzandlarining ta'lim tarbiyasining poydevorini maktabgacha yoshdalik davridan qo'yish, jismining yetukligi, uning kamolotining mo'ljalini olib davlatimiz siyosatida ustivor yo'nalish bo'lib muammo **dolzarb**.

## ADABIYOTLAR TAHLILII VA METODLAR

Mualliflar professor T.S.O'smonxodjayev, dosent S.T.Islomovalarning qayd qilingan metodik qo'llanmasi bu yoshdagilarning jismi tarbiyasi muammo larini faqat katta va tayyorlov guruhalining tarbiyalanuvchilarini tan tarbiyasini davlat dasturi materialiga moslab, unin materialini o'qitishni ayrim materiallarini nazarda tutgan xolos. Bizningcha mualliflar maktabgacha ta'lim muasssalarini jismoniy tarbiyadan umumiylarini davlat dasturi materiallarini birinchi sinifiga tayyorlashni maqsad qilganlar degan fikrga keldik.

Maxsus adabiyotlarning nazariy taxlili (Sh.Xankeldiyev 2021; A.Abdullayev, 2022;) maktabgacha yoshdagilarni "o'ta harakatchan", "o'itacha harakatchan"va "sust harakatlanadiganlar" deb 3-7(8) yoshdagilarni harakatchanligi nuqtai nazardan guruuhlayboshladilar. Ularni harakatchanligini bunday toifalanishi hozirgi kun tarbiya amaliyotida isbotlangan, ulardan o'ta harakatchanroq bolalarni shuhligi yoki sust harakatchanligini ota – onalarning ayrimlari yoqirsa, ayrimlari yoqtirmaydilar. Ularning 63% dan ortig'i anketa savollariga bergen javoblarida (43% ota - ona) bolalarini harakatchanligini yotirmasligini, bu sifat(harakat sifati) harakatchanlik o'zidan yoki farzandini bobolari, momolaridan meros ekanligini bilmasliklarini (71% erkaklar) e'tirof etdilar.

## NATIJALAR VA MUHOKAMA

Biz kuzatgan 20 ga yaqin Farg'ona viloyatining maktabgacha ta'lim maskanlari hozirgi kunda davlat, nodavlat va sherikchilik asosida o'z faolaiyatlarini yo'lga qo'yganligining guvohi bo'ldik va ular o'zining dastlabki ijobiy natijalarini bermoqda.

O'tgan asming oxirgi yillarigacha bo'lgan davr ichida mamlakatimizda bolalar yoshini davrlarga ajratilishiga oid ma'lumotlar maxsus adabiyotlarda turlicha bo'lganligini ko'rsatdi. Ularning qaysi biri to'g'ri, qaysi biri noto'g'ri degan bahsga o'tish maqsadimiz yo'q. Lekin bolalarning yoshi va ulami davrlash ularning organizmini shaklanishi - o'sishi va rivojlanishida sodir bo'ladigan biologik evolyusion o'zgarishlarni nazarda tutadi. Hozirgi kunda maktabgacha yoshdagilarni yoshi davrini davrlanishiga to'xtaldik.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni guruhashda N.P.Gundobin ishlagan ontogoneziga qiyoslasak anketa savollari orqali biz anketa so'rovdan o'tkazgan tarbiyachilarning (47 nafar respondentlarimiz) deyarli barchasi tarbiyalanuvchilarni kichik, o'rta, katta, maktabgacha yoshdagilar deb guruhanishini bilishlarini guvohi bo'ldik.

Bolalarning har qaysi yoshi davridagi jismining statusining taxminiy ko'rsatikichlariga mansub bilimlari maqtab bo'lmaydigan darajada sayozligini guvohi bo'ldik. Ularning jismoniy madaniyat, oila jismoniy madaniyati, bu yoshdagilarni ota-onalarini bu yoshdagilar bilan o'tkaziladigan bolasi jismi tarbiyasi vositalari, jismoniy mashq qildirishga oid amaliy malakalari bola yo'rgaklash, bolani tagini tozalash, ularni ovqatlanishini tashkillash bilimlarini beradigan "yosh onalar", farzandli bo'lishga tayyorlash kurslari berayotgan bilimlardan ham pastligi, sohaning terminlari va atamalarini yaxshi bilmasliklarini aniqladik.

Aslida maxsus adabiyotlar bolalar umrining "ontogonezidan", ularning ma'lum davrlaridagi jismining rivojlanishining ko'rsatkichlarini o'ziga xos xususiyatlarni yaxshi o'rgangan deb aytma olmaymiz. Masalan, 2022 yili A.Abdullayevning muallifligida yaratilgan mamlakatimiz Oliy o'quv yurtlarining jismoniy tarbiya fakultetlarining talabalari uchun yaratilgan "Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi" nomli darsligining 3-to'ldirilgan nashrida maktabgacha yoshdagilar jismoniy rivojlanishining ko'rsatkichlarida: - a)bolaning tug'ilishidan so'ngi dastlabki to'rt haftalik davri - emiziklik; b)1 yoshgachalik davri; v)dastlabki ilk bolalik 1yoshdan 3 yoshgachalik davri; v) 3 yoshdan -5 yoshgachalik,5 yoshdan -7(8) yoshgachalik (birinchi bolalik) davri; g) bolalik davri esa (7(8) - 9(10) yoshgacha ; ye) ikkinchi bolalik davri 10-12 yoshgachalik) davrini o'z ichiga olishini bergen. maxsus adabiyotlarda tavsiflangan.Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlanib

**PEDACOGIKA**

amaliyotga tavsiya qilingan "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim muassasasining Davlat o'quv dasturi ham shu yoshi davrini tasdiqlaydi.

Tadqiqotlarimiz davomida anketa savollariga jalb qilgan tarbiyachilarimizning so'rovda ishtirok etganlarining aytarli 63%dan ortig'i birinchi, ikkinchi bolalik yoshi davri tarbiyalanuvchilarni kichik maktab yoshidalik davri sanalishiga oid tushunchalari to'liq deb ayta olmaymiz.

Maktabgacha yoshdagilarni yoshi klassifikasiyasiga mansub Farg'ona davlat universitetining maktabgacha yoshdagilar muassasasi tarbiyachilarini malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash krsining 47 nafardan ortiq tinglovchilari (respondentlarimiz)da o'tkazgan anketa savollariga olgan javoblarimizda bolalning yoshi guruuhlarini davrlanishiga oid savollariga olgan javoblarimiz biz kutgandek bo'lib chiqmadи. Ularning ko'chiligi 63% o'zining ta'lim muassasasi tarbiyalanuvchilarini "ontogonez"dagi maktab yoshigachalik davri yoshini, emiziklik davri bilan go'daklik davrini farqini 33% tinglovchi, ilk bolalik, birinchi bolalik davrini 41% respondentlarimiz farqlay olmasliklarini tan oldilar.

Biz 10 ortiq Farg'ona shahar bolalar bog'chasi, 30dan ortiq Quva, Farg'ona va Bag'dod tumanlari maktabgacha yoshdagilar ta'lim muassalarida faoliyat ko'rsatayotgang tarbiyachilari va muassasalaming boshqa texnik xodimlarning 60% dan ortig'i kasb hunar kollejlarning maktabgacha yoshdagilar ixtisosligini bitiruvchilari ekanligini aniqladik. So'rovda ishtirok etganlarning Oliy ma'lumotlilar soni 19% ni tashkil etdi holos. Hatto ular ham jismoniy mashqlar ta'rifini aytin(77%), uni bajarsa qaysi mushaklar rivojlanadi? (83%) degan savollarimizga to'g'ri javob beraolmadilar. Massjining xillari haqidagi boshlang'ich bilimlarga 11% tarbiyachi qisman(2-3 xilini ) nomini aytaoldilar xolos.

Ularning kasbiy nazariy tayyorgarligi va amaliy malakalarini davr talablar darajasiga to'liq javob beradi deb aytib bo'lmaydi. Sababini o'rganish bo'yicha izlanishlarimiz soha mutaxasislarini o'rta bo'g'ini, o'ni pedagogik kollejlarda tayyorlash o'quv rejasi va davlat dasturidan oxtarish zarurligini taxlilarimiz natijalari orqali aniqladik.

Biz o'rgangan 2016, 2018, yillar davomida maktabgacha yoshdagilar o'quv muassasalariga muassasalarga tavsiya qilingan "Bolajon" tayanch Davlat dasturi (2016) hamda "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim vazirligining maktabgacha ta'lim muassasalarining Davlat o'quv dasturlari (2018 y.) o'quv materiali atrof muhit bilan tanishtirish(6-7 yosh)kattalar bilan tanishtirish,, ilk matematik tasavvurlar, nutq , savodga tayyorlash, badiiy adabiyotlar bilan tanishtirish, rasm ,loy ishi, applikasiya, qo'rish yasash, musiqa, dan tashqari jismoniy tarbiyaga oid bilimlarni soha mutahasislarida shakllangan bo'lishi tarbiyachininining maxsus bilimlari bo'lishini Davlat tasturlari talabi ekanligniularning taxlili orqalianiqladik.

Namunaga arzigulik, xorijiy dasturlar asosida o'quv tarbiyaviy ishlarni yo'lga qo'ygan maktabgacha ta'lim muassasalarini Farg'ona viloyatida mavjud ,lekin, ularning soni barmoq bilan sanarli.

Ayniqsa, bolalar bog'chasi jismoniy madaniyatini shakllantirish, jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish mashq'ulotlari, ularning zamonaviy shakllaridan foydalanish uchun lozim bo'lgan maktabgacha ta'lim maskanlaridagi shart-sharoitlar, davrimiz talablariga to'g'ri keladi deb aytib bo'lmaydi. Shunga ko'ra maktabgacha yoshdagilar jismoniy tarbiyasi uning jismoniy statusini shakllantirish ularning ko'rsatkichlarini doimiy nazoratda ushslash shu kunning talabidir.

Maktabgacha ta'lim muassasalarini mutaxasislarini kasbiy tayyorgarligi tizimi va uning nazariy asoslарining ayrim aspektlari o'zining takomillashtirilishini taqazo etadi.

Biz o'rgangan 40 dan ortiq maktabgacha ta'lim muassalarining faqat 12 % da soha mutahasislari faoliyatida foydalanadigan maxsus adabiyotlarni uchratdik xolos. Mavjudlari ham ota-onalar tomonidan o'quv maskaniga xayriya qilgan tarqatma material sifatida foydalanishi mumkin bo'lgan rangli, voqeylekning ongleshga mo'ljalangan adabiyotlar. Maxsus, tarbiyachiga uslubiu yordam beradigan adabiyoiolar yurtimiz miqqiyosida chiqarilgan bo'lsa ham ular o'zlarining manzilini topib kelgani yo'q.Mavzuga oid ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga tatbiq etilishi, nashrga tavsiya qilinishi nazarda tutilgan adabiyotlarni muhokamadan o'tkazilishini cho'zilishi nashrlarni o'z vaqtidaligini orqaga surmoqda.

Eng muhimmi ulami nashrini ko'paytirish maktabgacha yoshdagilarni jismoniy madaniyati bilan shug'ullanuvchilarni kasbiy nazariy va kasbiy amaliy malakalarini shakllanishiga ijobiylar ta'sir qilgan bo'lar edi.

Maktabgacha yoshdagilar jismoniy madaniyati mamlakatimiz jismoniy madaniyati tizimining boshlang'ich zvenosi , inson umrining tug'ilgan kunidan boshlab 6(7) yoshigacha bo'lgan davrini jismoniy rivojlanganligi va tayyorgarligini mujassamlashtiradi va bu yoshdagilarni o'quv muassalarining o'quv tarbiya jarayoni mazmunini tashkil qiladi.

Bolalarning aynan shu yoshi davrida ularning organizmini o'sishi va rivojlanishida nisbatan o'ta intinsivligi kuzatiladi, muhim organlari va tuzilmalarining xizmat faoliyati yaxshilanadi, jismoniy va ruhiy qobiliyatlar har tomonlama tarbiyasiga tag zamini yaratiladi.

Qayd qilinganlardan kelib chiqib, maktabgacha yoshdagilar jismoniy madaniyatining nazariy, tashkiliy asoslariga oid bilimlari mazmuni, uning nazariy asoslari va amaliy malakalarini shakllantirishning mukammal asosi yaratilganmi deb savol qo'yishimiz o'rinni. Taxlillarimiz mavjud tizim yaratilgan, lekin, ularning ilmiy – nazariy asoslarini takomillashtirish taqazo etiladi va muammo shu kunda davlat buyurtmasiga aylangan.

Sohaning bo'lajak mutaxasislari - ular oliyoh bakalavrlarimi, magistrlarimi, yoki soha mutaxasislarimi, o'rtalik maxsus ta'lif muassalarining bitiruvchilarimi kim bo'lishidan qat'iy nazar maktabgacha yoshdagilar o'quv muassasalarining jismoniy madaniyatiga mansub nazariy bilimlar va amaliy malakalarni sohibi bo'lishlari shart. Shuning uchun ham tajribalarimiz davomida yaratishimiz lozim bo'lgan takomillashtirilgan maktabgacha ta'lif o'quv muassasalarining "jismoniy tarbiyadan takomillashtirish" o'quv materialini aprobasiyasini o'tkazishga e'tiborimizni qaratdik.

### XULOSA

Xulosa qilsak maktabgacha yoshdagilar o'quv muassasalarining jismoniy madaniyati davlat dasturi o'quv materiallari, sohaga oid fanning yetakchi tushunchalarini, sog'lom turmush tarzi jismoniy madaniyatining mashg'ulotlari, vositalari, ta'lif metodlariga mansub atamalar va tushunchalarini tarbiyachilar uchun o'qitish maqsadga muvofiqligini aniqladik. Shunga ko'ra maktabgacha ta'lif muassalarining bolalr jismoniy madaniyatiga mansub kasbiy nazariy tayyorgarlikni takomillashtirish maqsadida jismoniy madaniyat nazariyasiga oid nazariy bilimlarini berishni lozim ko'rdik.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdullayev A. va boshqalar. "Jismonan barkamol avlod orzusi". Farg'onha, 2003 y.
2. Tarasova G.V. "1 yoshdan 3 yoshgacha bo'lgan bolalar tarbiyasi" T.: Ibn Sino nomidagi nashriyot, 1991.
3. Usmonxo'jayev T.S., "O'zbek xalq harakatlari o'yinlari" O'qituvchi 2004 yil.
4. Usmonxo'jayev T.S., Islomova S.T. "Maktabgacha ta'lif muassalarida jismoniy tarbiya", "Ilm-Ziyo" 2006 y.
5. Usmonxo'jayev T.S., "Sport o'yinlari – futbol" Ilm-Ziyo 2006 yil.
6. Usmonxo'jayev T.S., "Jismoniy tarbiyadan yangi tahrirdagi DTS, o'quv dasturi va mavzuni rejalashtirish"

Nur Vekras NSHK 2007 yil.